

**MOYLASH TIZIMINING VAZIFASI***SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI**2- son poletexnikumi yetakchi o'qituvchisi**Mattiyev Safar Xaziratovich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki yonuv dvigatellarida moylash tizimining asosiy vazifasi, ishlash prinsipi hamda dvigatelning samaradorligini ta'minlashdagi roli yoritilgan. Moylash turi, moy sifatiga qo'yiladigan talablar va uning transport texnikasidagi ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: moylash tizimi, dvigatel, ishqalanish, moy, samaradorlik, texnik xizmat, surkov materiallari.

Kirish

Transport vositalarining ichki yonuv dvigatellari ko'plab metall detallardan iborat bo'lib, ular ish jarayonida bir-biri bilan uzluksiz ishqalanadi. Ishqalanish natijasida harorat ko'tariladi, detallar yeyilishi tezlashadi va dvigatelning xizmat muddati qisqaradi. Shu bois dvigatelda moylash tizimining ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Asosiy qism

Moylash tizimining vazifalari

Moylash tizimi dvigatelning ishlash jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ishqalanishni kamaytirish – moy detallar orasida yupqa qatlam hosil qilib, ishqalanish kuchini kamaytiradi.
2. Sovutish – ish jarayonida qizigan detallarni moy orqali sovitadi va issiqlikni dvigatel blokiga o'tkazadi.
3. Tozalash – ish paytida hosil bo'ladigan metall zarrachalar, chang, yonish mahsulotlarini yuvib, filtr orqali tozalaydi.
4. Korroziyadan himoya qilish – moy detallarning zanglab qolishining oldini oladi.



5. Germetiklikni ta'minlash – porshen va silindr orasidagi bo'shliqni to'ldirib, siqish darajasini pasayib ketishidan saqlaydi.

6. Shovqinni kamaytirish – detallar silliq harakatlanadi, natijada dvigatel ishlashi ancha sokin bo'ladi.

Moylash tizimi turlari

Ichki yonuv dvigatellarida asosan ikki xil moylash tizimi qo'llanadi:

- Majburiy (nasosli) moylash tizimi – moy maxsus nasos orqali yig'ish poddonidan olib, filtrlar orqali detallar orasiga yuboriladi.

- Chayqalish orqali moylash tizimi – detallar harakati natijasida moy chayqaladi va yuzalarga tarqaladi. Bu tizim kichik dvigatellarda ko'proq uchraydi.

Moyga qo'yiladigan talablar

Dvigatellar uchun qo'llaniladigan moy quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim:

- yuqori haroratga chidamli bo'lishi;
- oksidlanishga barqarorligi;
- yopishqoqligi me'yorida bo'lishi;
- korroziyaga qarshi qo'shimchalarga ega bo'lishi;
- detallarni tozalash xususiyati yuqori bo'lishi.

Surkov moyining sifati dvigatelning ishlash muddatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun texnik xizmat ko'rsatishda moyni o'z vaqtida almashtirish muhim hisoblanadi. **Xulosa**

Moylash tizimi dvigatelning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. U detallar orasidagi ishqalanishni kamaytiradi, sovitadi, tozalaydi va korroziyadan himoya qiladi. Moylash tizimining to'g'ri ishlashi dvigatelning quvvati, iqtisodiyligi hamda uzoq xizmat qilishini ta'minlaydi. Shuning uchun moylash tizimiga muntazam texnik xizmat ko'rsatish va sifatli moylardan foydalanish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A., Avtomobillar tuzilishi va texnik ekspluatatsiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019



2. .2. O‘rinboyev S., Ichki yonuv dvigatellari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021
3. .3. Avtomobil dvigatellari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar va texnik ma’lumotlar.